

AXBOROT XATI

2024 yil 16 may kuni Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti “**Audiovizual va internet jurnalistika**” kafedrasidan “*Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar XXI asrda: rivojlanish tendensiyalari, ta’lim va texnologiyalar*” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya onlayn (ZOOM) va offlayn tarzda o‘tkaziladi.

Konferensiya doirasida ommaviy kommunikatsiya, televidenie va radio, internet OAV faoliyatiga oid dolzarb masalalar muhokama qilinadi. **Anjuman quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi:**

- Audiovizual va internet jurnalistika;
- Gazeta, jurnallar va axborot agentliklari;
- Jurnalistika fani va ta’limi metodologiyasining dolzarb muammolari;
- Mediasavodxonlik nazariyasi va amaliyoti;
- Axborot xavfsizligi;
- Mediamatn tili va uslubi;

Konferensiya tillari: o‘zbek, rus, ingliz.

Konferensiyada ishtirok etish uchun maqolalar **2024 yil 15 aprelga** qadar qabul qilinadi. Shakli va mazmuni bo‘yicha talablarga javob bermaydigan materiallar nashr etilmaydi.

Mualliflarga quyidagilar taqdim etiladi:

- Elektron variantdagi ilmiy to‘plam;
- Google scholar, Research Bib, PKP Index, Open Aire, Zenodo, Advanced science index, Directory of research journals indexing kabi bazalarda indeksatsiya;
- To‘plam uchun DOI raqam;
- Sertifikat;
- Hamkorlar va homiylardan esdalik sovg‘alari (eng yaxshi maqola mualliflari uchun)

Har bir maqola uchun to‘lov 120 ming so‘m.

To‘lovlar Click, Payme, Uzum Bank ilovalari orqali amalga oshiriladi va tashkilotchilarga skrinshot yuboriladi.

Manzil: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Bosh bino (rektorat) 1-qavat, Axborot-resurs Markazi

MAQOLANI SHAKLLANTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

1. TO‘LIQ ISM-ShARIF (mamlakat) (Hammualiflar - ikkitagacha)
2. Tashkilot nomi, lavozimi, elektron pochta manzili
3. MAVZUNING NOMI (markazda):
4. O‘zbek, rus, ingliz tillarida annotatsiya, kalit so‘zlar

- Maqola hajmi - 4-5 bet:
- Shrift: Times New Roman, hajmi - 14, oralig‘i - 1, qizil chiziq - 1,25 sm, sahifa chekkalari: yuqori va pastki qism -2 sm, o‘ng - 1,5 sm, chap - 3 sm.
- Izohlar matnda to‘rtburchak qavsda ko‘rsatiladi, masalan [*Ibragimov Sh, 2010, b.52*].
- Bibliografiya namunasi: *Ibragimov Sh. (2015). Osnovy telejurnalistiki. Tashkent: Fan.*

Ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami uchun materiallar quyidagi manzillarda qabul qilinadi:

1. Elektron pochta orqali: mediaconference@gmail.com
2. Telegram messendjeri orqali, +998974700787 Abdullaeva Zamira
3. O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti **2-etaj, 217-xona**
Ma’ruza bilan qatnashish istagida bo‘lganlar quyidagi raqamga murojaat qilishlari lozim, +998909592627 (PhD, Zoxitova Nodira)

Hamkor tashkilotlar*

- ✓ UNDP ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi
- ✓ Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi
- ✓ O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi
- ✓ “Ilmiy tadqiqot va innovatsiya” jurnali

**Hamkor tashkilotlar va ularning soni o‘zgarishi mumkin.*